

# AVTOBUSLARDA YO‘LOVCHILARNING HARAKAT XAVFSIZLIGIGA SALBIY TA‘SIR O‘TKAZADIGAN TO‘XTASH NUQTALARINI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH

Almamatov Mardon Isomitdin o‘g‘li  
”Transport logistikasi” kafedrası assistenti  
Jizzax Politexnika instituti

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Jizzax shahar jamoat transportidagi mavjud muammolar hamda yo‘lovchilarning harakat xavfsizligiga salbiy ta‘sir o‘tkazadigan bir qancha holatlar aniqlandi. Avtobuslarda yo‘lovchilarni tashish mobaynida bekatlardan tashqari hududlarda to‘xtashi tadqiqot natijasida o‘rganildi va harakat xavfsizligiga ta‘sir o‘tkazadigan nuqtalar tahlil qilindi.*

**Kalit so‘zlar:** *Avtobus, bekat, harakat xavfsizligi, hududlarda to‘xtashi, nuqtalar tahlili.*

**Abstract:** *This article identified existing problems in Jizzakh City public transport as well as a number of cases that negatively affect passenger traffic safety. During the transportation of passengers on buses, stopping in areas outside the stops was studied as a result of research and points of influence on the safety of movement were analyzed.*

**Key words::** *Bus, stop, movement Hazard, stop in the regions, point analysis.*

Mazkur maqolada obyekt sifatida Jizzax shahridagi “Sug‘diyona” – “Jizzax shahar IIB” yo‘nalishi bo‘yicha tanlab olingan obyektning to‘g‘ri va teskari yo‘nalishlari bo‘yicha jami 22 ta bekatlar oraliq masofalari o‘rganildi, hamda avtobus va yo‘lovchilarning harakat xavfsizligiga salbiy ta‘sir o‘tkazadigan bir qancha holatlar aniqlandi.(1-rasmlar)



1-rasm Avtobuslarning bekatlardan tashqari hududlarda to‘xtashi

Bu kabi holatlar jamoat transportida yo‘lovchilar va transport vositalari harakat xavfsizligining salbiy oqibatlariga olib kelishi hamda, turli hil yo‘l transport hodisalariga olib kelishi mumkin. Avtobuslar bekatlaridan tashqari joylarda to‘xtab odam olishi yoki tushirishi keksa yoshlilar, yosh bolali ayollar va imkoniyati cheklangan yo‘lovchilar uchun yanada xavf tug‘diradi.



2-rasm Avtobuslarning bekatlardan tashqari hududlarda to‘xtashi

Xususan, 2022-yil fevral-mart oylarida tadqiqot obyektida yo‘lovchilar oqimi talon va Geo tracker usullarida o‘rganilganda to‘g‘ri va teskari yo‘nalishlarda yo‘lovchilar oqimi jami bir kunda o‘rtacha 13066 kishini tashkil qilib, shundan 4077 kishi bekatlarda va 8989 kishi bekatdan tashqari hududda jamoat transportiga chiqish va tushish holatlari aniqlanib, shundan to‘g‘ri yo‘nalishda jami 11 ta bekatda 2124 yo‘lovchi bekatlar hududida jamoat transportidan foydalangani aniqlangan bo‘lsa, obyektning teskari yo‘nalishida jami 11 ta bekatda 1953 yo‘lovchi jamoat transportidan foydalangani aniqlandi. Shuningdek, obyektning to‘g‘ri yo‘nalishida jami 11 ta hududda 5031 yo‘lovchi bekatdan tashqari hududda tushgani aniqlangan bo‘lsa, obyektning teskari yo‘nalishida jami 11 ta hududda 3958 yo‘lovchi tushgani aniqlandi (1,2-jadvallar). Olingan ma‘lumotlarga ko‘ra shuni aytish mumkinki, bir kunda jami 8989 yo‘lovchilar bekatdan tashqari hududlarda JT dan foydalanib, nafaqat transport vositalarining balki, o‘zlarining ham yo‘llarda JT dan foydalanishda harakat xavfsizlik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

1-jadval


Tadqiqot obyektining to‘g‘ri va teskari yo‘nalishlari bo‘yicha bekatlarda tushgan va chiqqan yo‘lovchilar oqimi

№	Tadqiqot obyektining to‘g‘ri yo‘nalishi bo‘yicha bekatlar nomi	To‘g‘ri yo‘nalish bo‘yicha JT ga chiqqan va tushgan yo‘lovchilar soni	Tadqiqot obyektining teskari yo‘nalishi bo‘yicha bekatlar nomi	Teskari yo‘nalish bo‘yicha JT ga chiqqan va tushgan yo‘lovchilar soni	Jami yo‘lovchilar oqimi
1	Sug‘diyona	178	Zilol MFY	85	263
2	6-maktab	180	Tovar XAB	28	208
3	Viloyat kasalxonasi	450	Vodnik	31	481
4	JDPI bekati	385	Eski shahar buyum bozori	256	641
5	“Zebo” savdo uyi	408	San‘at kolleji	0	408
6	Diagnostika	56	Vali bobo	112	168
7	Axborot-kutubxona	39	Gullar bekati	117	156
8	Ped. kollej	28	“Zebo” savdo uyi	476	504
9	Xalqobod bozori	328	Paris	218	546
10	Tovar XAB	33	Toshloq	445	478
11	Jizzax IIB	39	Sug‘diyona	185	224
	<b>Jami</b>	<b>2124</b>	<b>Jami</b>	<b>1953</b>	<b>4077</b>

Tadqiqot obyektining to'g'ri va teskari yo'nalishlari bo'yicha  
bekatdan tashqari hududlarda tushgan va chiqqan yo'lovchilar oqimi

№	Tadqiqot obyektining to'g'ri yo'nalishi bo'yicha bekatdan tashqari hududlarda to'xtashlar koordinatasi	To'g'ri yo'nalish bo'yicha JT ga chiqqan va tushgan yo'lovchilar soni	Tadqiqot obyektining teskari yo'nalishi bo'yicha bekatdan tashqari hududlarda to'xtashlar koordinatasi	Teskari yo'nalish bo'yicha JT ga chiqqan va tushgan yo'lovchilar soni	Jami yo'lovchi oqimi
1	40.119467, 67.829827	644	40.120968, 67.828954	200	844
2	40.125511, 67.827716	505	40.124088, 67.827835	401	906
3	40.128719, 67.826592	548	40.126816, 67.826853	490	1038
4	40.132361, 67.825260	960	40.132244, 67.824872	948	1908
5	40.138520, 67.822639	438	40.139781, 67.821828	310	748
6	40.144162, 67.820896	480	40.142930, 67.820505	440	920
7	40.150684, 67.823112	420	40.150500, 67.822727	209	629
8	40.154580, 67.823725	320	40.154517, 67.823314	325	645
9	40.157084, 67.828361	390	40.157849, 67.829323	340	730
10	40.161377, 67.834838	145	40.161377, 67.834348	130	275
11	40.166251, 67.841441	181	40.166607, 67.841291	165	346
	<b>Jami</b>	<b>5031</b>	<b>Jami</b>	<b>3958</b>	<b>8989</b>

O'rganilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatyaptiki obyektida joylashgan to'g'ri va teskari yo'nalishlar bo'yicha jami 22 ta bekatlarda to'xtashlar soni 2392 tani tashkil qilib, bekatdan foydalanish darajasi 30,2 % ni tashkil qilmoqda va bekatdan tashqari hududlarda to'xtashlar soni jami 5504 tani tashkil qilib, jami to'xtashlar soning 69,8 % ini tashkil qilmoqda (3-rasm).



3-rasm: Bekat va bekatdan tashqari hududda to'xtashlar grafigi

## Foydalanilgan adabyotlar

1. Андреев К. П. Совершенствование городской маршрутной сети //Надежность и качество сложных систем. – 2017. – №. 3 (19). – С. 102-106.
2. Мороз Н.Н., Логванов А.В. Анализ образования пассажиропотоков и выбор метода их исследования на маршрутах района г.Кременчуга «третий занасыпь»// транспорт дорожні та будівельні машини Вісник КДПУ. Випуск 2/2006 (37). Частина 1
3. Сорокин А. А. Этапы анализа результатов обследования пассажиропотоков в системе городского пассажирского транспорта //Вестник Северо-Кавказского федерального университета. – 2017. – №. 6 (63). – С. 160.
4. Practical exercises book Module-1a: Principles of Geographic Information Systems. Indian institute of remote sensing, Dehradun, India. 2016 – 157 p.
5. Abdurasulovich, K. J., Yangiboevich, K. M., Anvarovich, A. A., Xolmurodovich, G. A., & Abdurasulovich, K. O. (2020). Opportunities and results to increase the effectiveness of multimedia teaching in higher education. Journal of Critical Reviews, 7(14), 89-93.
6. Qarshiboyev Sh. Texnik oliy ta'lim muassasalaridatalabalarning maxsus kompetentsiyalarini shakllantirish. Kasb-hunar ta'limi, 2021 yil 2 son.
7. <https://lex.uz/docs/-4194107>
8. <https://lex.uz/docs/-4194161>
9. <https://lex.uz/docs/-3114480>
10. <https://lex.uz/docs/-4300863>